

Talabalar g'oyasi - ilm qoyasi

“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakultetining iqtidorli talabalari Ravshan Botirov, Ma'ruf Baratov, Dilshod Abdurazzoqov, Farruh Ravshanov, Bobur Anorboyev, Botir Qo'shboqov hamda To'lqin Umurzakovlardan tashkil topgan “Muhandislar” jamoasi tuzildi.

Ular yaqinda “O'zbekiston” telekanali orqali efirga uzatilishi rejalashtirilgan “Urfon shou” intellektual teleo'yinida ishtirok etib kelishdi. Shu asnoda talabalarimiz o'zlarining bilim va qobiliyatlarini chig'iriqdan o'tkazishdi.

Talabalar uchun innovatsion g'oyalarini ro'yobga chiqarishda, madaniy hamda intellektual o'yinlarda, sport musobaqalarida va boshqa tadbirlarda faol ishtirok etishlarida institut hamda fakultet rahbariyati tomonidan bir qancha imkoniyatlar va sharoitlar yaratib kelinmoqda. Bu harakat ularning intellektual salohiyatlarini oshishida, kengqamrovli bilimga ega bo'lishlarida asqotayotgani sir emas.



**“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha
dekan o'rinbosari Ikrom Raximov axboroti**

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov